

TA'LIM SOXASIDA INTERNET-TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Abdurasulova Nozanin Nodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Axborot texnologiyalarining asosiy maqsadi - birlamchi axborotni maqsadga yo'naltirilgan harakat natijasida qayta ishlash yo'li bilan foydalanuvchiga kerakli axborotni berishdir. Ushbu maqolada internet-texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari, usullari, tajribalari hamda dars jarayonidagi pedagogik metodlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, internet rivoji, masofali o'qitish, pedagogik metodlar, "Venn diagrammasi" metodi, "Piramida" metodi.*

Texnologiya - bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jam qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. "Texnologiya" tushunchasi regulvativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaql, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiv asosda qurish;
- talab etilgan natijalami kafolatlaydigan fan va tajriba vutuqlaridan foydalanish;
- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash:

- texnik vositalarni varatish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqa.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida bu bosqichlarning har biri o'ziga hos amallardan iborat bo'ladi.

Axborot texnologiyalarini umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Barcha sohalarga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta'lim maktablari ta'lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Umumiy ta'lim

maktablaridagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositasida o'qituvchi va o'quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi, jumladan:

- Axborot yig'ishning yangi usullarini va ularni qo'llashni bilib oladilar;
- Bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;
- Mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;
- Bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. O'qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Axborot texnologiyalarini qo'llashda o'quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga intilish lozim.

O'zbekiston Respublikasida internet rivoji mamlakat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligi.

O'zbekiston Respublikasida internet rivoji bevosita mamlakat taraqqiyoti bilan uzviy bog'lanadi. U o'zida zamonaviy davlat va aholi turmush tarziga xos barcha bosqichlarni aks ettiradi. O'zbekistonda Internet rivojini quyidagi asosiy davrlarga bo'lish mumkin: 1990-yillar boshi UUCP ma'lumotlar uzatish tizimida elektron pochta orqali ma'lumot almashish imkoni paydo bo'ldi. Foydalanuvchilar analog modemlar yordamida Moskvaga yoki boshqa shaharlararo qo'ng'iroqni amalga oshira boshladilar.

Ma'lumotlar uzatish tezligi 1200-2400 bod (bit/s)ni tashkil qilgan. 1992-1995 yillarda UUCP mahalliy provayderi faoliyatini boshlagan. U tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar tezligi 9600-14400 bod (bit/s)ni tashkil qilgan. Shundan so'ng BCC (Biznes Aloqalar Markazi), CCC va PERDCA (Silk.org) provayderlari tashkil etilgan. SONET elektron tijorat tarmoqlariga ulanish boshlangan. FidoNet matnli ma'lumotlarni jo'natish global tarmog'i ishga tushdi.

Relcom – ilk elektron pochta tarmog'i ishga tushdi. Ma'lumot uzatish tezligi 9600 dan 14400 bodgacha bo'lgan analog modemlar orqali Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati tug'ildi. Mazkur xizmatlar Naytov, BCC hamda Silknet (PERDCA) provayderlari tomonidan ko'rsatilgan. 1997-1999 yillar Internetning misli ko'rilmagan rivojlanish davri. Har bir provayder xalqaro Internet tarmog'ida o'zining mustaqil kanaliga ega bo'ldi. Ba'zi birlarida Moskvaga qadar modemlari, boshqalarida asinxron sputnik kanallari mavjud bo'lgan.

O'zbekistonning ilmiy-ta'lim tarmog'i UzSciNet faoliyatini boshladi. Yangi internet provayderlari tashkil etildi. Internetdan bir soat foydalanish bahosi 600 so'm (shu davrda Markaziy bank kursi bo'yicha bu o'rtacha 4 dollarga teng mablag') bo'lgan.

O'zbekiston AT Assotsiatsiyasi, Ziyonet axborot ta'lim tarmog'i, kompyuter xurujlariga tezkor choralar ko'ruvchi «UZ-CERT» xizmati, Milliy axborot-qidiruv tizimi <http://WWW.UZ> ga asos solindi. 2006-2009 yillar. Tashqi Internet kanallarining

o'tkazuvchanlik salohiyati 1125 Mbit/s.gacha oshdi. Birinchi elektron raqamli imzoni ro'yxatga olish markazi ochildi. Kompaniyalar GPRS, 3G, Wi-MAX texnologiyalari asosida simsiz Internet xizmatlarini ko'rsatishni boshladilar. Internet foydalanuvchilari soni 2 milliondan oshib, mobil aloqa foydalanuvchilari 10 millionga yetdi. Simus kompaniyasi «UZ» domenining milliy registratoriga aylandi.

Hozirgi kunning asosiy talablaridan yana biri, o'quv jarayonini to'liq kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda olib borishdir. Buning uchun kompyuter tarmoqlari, uni tashkil etuvchilari, fandagi o'rni nimalardan iborat, internet tizimi nima va o'qitishda xamda o'quv jarayonida foydalanishda nimalarga e'tibor bermoq kerak degan savollarga javob berish maqsadga muvofiqdir.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda masofali o'qitish.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda masofali o'qitish alohida o'rin egallaydi. Masofadan turib o'qitish bu inson o'zining bilim darajasini oshirishni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda xoxlovchilar, maktabga borish imkoniyati bo'lmagan, nogironlar, keksa yoshdagilar kabilar uchun katta yo'l ochib beradi. Masofali o'qitishda biz hech kimni majbur qila olmaymiz. Yangi axborot texnologiyalari asosida masofali o'qitishni tashkil qilishning bir qator usullari mavjud: interfaol teoevedeniya, telekommunikatsiya, CD-ROM texnologiyasi asosida, o'quv radio va televedeniya, video lentalar va hokazo. So'ngi yillarda to'rt xil turdagi masofali o'qitish keng tarqalmoqda:

1. Interfaol televedeniya (two-way TV);
2. Axborot almashinuviga asoslangan kompyuterli telekomunikatsiya setlari (regional va global, internet);
3. Multimediali, interfaol rejimli, videokonferentsiyalar o'tkazish imkoniga ega kompyuterli telekomunikatsiya setlari;
4. Birinchi va ikkinchi turlar kesimida. Masofadan o'qitish bu Internet tarmog'i orqali sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qishdir.

Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari: o'qituvchi, o'quvchi, kommunikatsiyadir.

Masofadan o'qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar (Internet saxifa)
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Mul'timedia elektron darsliklar

Shunday qilib, masofadan o'qitishda virtual kutubxonalar, sputnik orqali videokonferentsiyalar, darslar, Internet yordamida muloqot va informatsiya olish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu esa o'quvchi uchun maxsus o'qish doirasini berdi. O'quvchining fanni o'zlashtirish tezligi va sifati keskin yaxshilandi. Dunyo amaliyotida ochiq va masofali o'qitish hozirgi kunda asosan oltita modelga asoslangan:

1-model. Eksternat tipida o'qitish. Bunda o'quvchi maktab yoki oliy o'quv yurtida o'qitishning kunduzgi ta'lim tizimidan foydalanmaydi. Bunda o'quvchi ta'lim muassasasiga qatnamasdan attestat yoki diplomga ega bo'ladi.

2-model. Oliy o'quv yurtida o'qish (kunduzgi ta'lim). Bu butun bir sistema bo'lib, ta'lim kunduzgi, sirtqi yoki masofali o'qitish yangi axborot texnologiyalari asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu usuldan ko'pgina xorijiy oliy o'quv yurtlarida keng foydalanilmoqda.


3-model. Bir nechta oliy o'quv yurtlarining o'zaro hamkorligida o'qitish. Bunda bir qator davlatlardagi oliy o'quv yurtlari o'zaro hamkorlikda sirtqi va masofali o'qitish yo'lga qo'yilib talabalar xoxlagan davlatdagi oliy o'quv yurti yoki kollejda o'z davlatini yoki uyidan uzoqlashmasdan ta'lim olish huquqiga ega bo'ladi.

Internet-texnologiyalari asosida pedagogik metodlar.

“Venn diagrammasi” metodi.


Bu metod ikki yoki undan ortiq tushunchalarni bir-biriga taqqoslash, tahlil qilish, ulardagi umumiy tomonlarni aniqlashda ishlatiladi. Venn diagrammasi ikki va uch jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

U 2-3 bir-biriga kesishgan aylanalardan iborat bo'ladi. Aylanalarni 5-6 o'quvchidan iborat kichik guruhlar to'ldiradilar.



“Piramida” metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Bu metodda muayyan mavzu tanlanib shubu mavzuni yoritib beruvchi umumiy tayanch tushinchalar o'rganilib chiqiladi. Bu esa qadam va qadam bajarilib piramidaga yozilgan har bir tushincha ayni bir mavzuni ifodalashi kerak. Shuningdek o'quvchilar bu tushinchalarni og'zaki izohlab berishlari lozim.



Hozirgi zamon fanlarida ko‘plab umumiy, xususiy ilmiy metodlar qo‘llanadi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Hozirgi kunda fan bo‘yicha metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilar bilim saviyasiga ham ancha katta foyda berib kelmoqda.

Yuqorida tanishtirib o‘tilgan metodlar orqali o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi va shu soha bo‘yicha ma‘lumotlar qidirish davomida yangiliklarga ham ega bo‘lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata‘lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. -T.: «Extremum-press», 2015. -94 b.
2. Martineau, M. (Ed.) (1988). L’enseignement du cinema et de l’audiovisuel. Paris: CinemAction, 299 p.
3. Turdiyev N. Sh, Asadov Yu.M, Akbarova S.N, Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari. -T.:T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institute, 2015. 160 b